

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



УО'К: 101.1

**OILAVIY ZO'RAVONLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI****СОДЕРЖАНИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ПОНЯТИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ****CONTENT AND CONCEPTUAL BASIS OF THE CONCEPT OF DOMESTIC VIOLENCE**

**Abduraxmonov Rustam Baxromdjonovich**   
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Maqolada oilaviy zo'ravonliklarni oldini olishda gender identiklik omilining falsafiy-antropologik tahlil qilishning nazariy-metodologik asoslari, oilaviy zo'ravonliklarni oldini olishda gender identiklikni ta'minlashning falsafiy jihatlari, ilg'or xorijiy tajribalari va ustuvor yo'naliishlari, istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari tahlil qilingan.

**Аннотация**

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы философско-антропологического анализа фактора гендерной идентичности в профилактике домашнего насилия, философские аспекты обеспечения гендерной идентичности в профилактике домашнего насилия, передовой зарубежный опыт и приоритетные направления, а также задачи на будущее. Также были проанализированы теоретико-методологические аспекты философско-антропологического анализа фактора гендерной идентичности в профилактике домашнего насилия.

**Abstract**

The article studies the theoretical and methodological foundations of the philosophical and anthropological analysis of the gender identity factor in preventing domestic violence, the philosophical aspects of ensuring gender identity in preventing domestic violence, advanced foreign experiences and priority areas, and future tasks. It also analyzes the theoretical and methodological aspects of the philosophical and anthropological analysis of the gender identity factor in preventing domestic violence.

**Kalit so'zlar:** oilaviy zo'ravonlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, gender identiklik, falsafiy-antropologik tahlil.

**Ключевые слова:** домашнее насилие, национальные и общечеловеческие ценности, социальные законы, традиция и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системный и функциональный, гендерная идентичность, философский и антропологический анализ.

**Key words:** domestic violence, national and universal values, social laws, tradition and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systemic and functional, gender identity, philosophical and anthropological analysis.

**KIRISH**

Ruhiyatga nafaqat jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilish, balki boshqa manfaatlarga, ko'pincha muhimligi jihatdan sog'liq va hatto hayotdan mahrum qilishdan ham qolishmaydigan boshqa (masalan, sha'n, qadr-qimmat, erkinlik, obro'-e'tibor, mulkiy) qadriyatlar ham ta'sir qiladi; to'rtinchidan, zo'ravonlikni faqat bevosita inson irodasiga ta'sir ko'rsatish sifatida ko'rib chiqilishi hozirgi kunda ancha tordek tuyuladi. Jismoniy zo'ravonlik esa xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbazarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shaklidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Oilaviy zo'ravonliklarni oldini olishning ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik jihatlari, oilaviy zo'ravonliklarga qarshi kurashishda genderli yondashuv imkoniyatlari va gender identiklik

## FALSAFA

masalalari R.Konnella, P.Burdye, Dj.Skott, V.Spayk Peterson, L.I.Amanbayeva, A.V.Belyayev, M.V.Bogomaz, L.S.Vigotskiy, Dj.Karpara, V.A.Sitarov, G.M.Andreyeva, V.V.Antipov, L.P.Bogdanova, A.Varga, I.F.Dementyeva, T.R.Kirimov, N.M.latipova, O.Musurmonova, N.R.Nishonova, M.X.Xolmatova, G.Matkarimova, X.Nasrullayeva, N.Jo'rayeva, M.Nurmatova, E.Sultonova, S.X.Safayeva, Sh.Sodiqova, G.J.G'aniyeva, M.Q.G'afforova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oila doirasidagi ruhiy zo'ravonlik deganda, odatda xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr -qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) da nomoyon bo'ladi.

Muxtasar aytganda, oiladagi zo'ravonlik – bu o'zlarining yaqinlari (asosan ayollar va bolalar) ustidan hukmronlik va nazorat qilish maqsadida, odatda aynan bir shaxsga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'rlik qilishda namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ayrim hollarda zo'ravonning jismoniy va ruhiy zo'rliги natijasida xotin-qizlar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi hollari ham kuzatilmoqda.

Insonning har qanday qilmishi har doim ongli va aql-irodasi bilan sodir etiladi. Shuning uchun o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarinii boshqara olmagan shaxsning harakatlari, hatto ijtimoiy-xavfli oqibatlarga olib kelgan taqdirda ham jinoyat hisoblanmaydi.

Zo'ravonlikka uchragan ayollar yengib bo'lmaydigan jismoniy kuch yoki ruhiy zo'rlik ta'siri ostida qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga xavf soluvchi qilmishi va uning oqibati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Shu o'rinda jismoniy va ruhiy zo'rlik tushunchasiga to'xtalib o'tish lozim. Jismoniy zo'rlik, deganda shaxsning boshqalarning jismoniy ta'sirida jamiyat uchun xavfli qilmishlarning amalgalari oshirishi tushuniladi va bunda jismoniy ta'sir uning ixtiyorini butunlay olib qo'yadi (masalan, er xotinini urib tan jarohati yetkazsa yoki haqorat qilsa, natijada xotini o'zini himoya qilish maqsadida eriga yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazsa).

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy xavfli qilmish zaruriy mudofaa holatda sodir etilgan taqdirda shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Masalan, er xotiniga nisbatan zo'rlik ishlatib unga shikast yetkazmoqchi bo'lganda yoki o'ldirmoqchi bo'lganda, o'zini himoya qilish maqsadida xotin mudofaa vaqtida erini hayotdan mahrum qilishi, sog'ligiga zarar yetkazishi, mulkini nobud qilishii mumkin. Mudofaa holatida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmasligi lozim. Aks holda, sodir etilgan jinoyatda barcha zaruriy shartlar mavjud bo'lgan hollarda xayoliy mudofaa qoidalari bo'yicha zaruriy mudofaa yoki ehtiyoitsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyat sifatida yohud umumiy shartlar asosida qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Ruhiy zo'rlik, deyilganida shaxsni o'ldirish moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazish bilan qo'rjitilishi natijasida sodir etgan harakat yoki harakatsizligi tufayli ijtimoiy xavfli oqibatning ro'y berishi tushuniladi. Ruhiy ta'sir natijasida yetkazilgan zarar uchun aybdor oxirgi zarurat hollardan tashqari barcha hollarda javobgarlikka tortiladi. Sud jazo tayinlayotganda bu holatlarni javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida e'tiborga olishi kerak. Qilmish ijtimoiy xavfli bo'lishi yangi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaza oladigan darajada xavfli bo'lishi kerak.

Shu o'rinda savol tug'iladi! Oiladagi zo'ravonlikning asosiy qurbanlari bo'lgan ayollar va bolalarga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'ravonlik nimalarda namoyon bo'ladi? Ko'pchilik zo'ravonlar oiladagi hukmronliklarini kuchaytirish maqsadida qanday usullardan foydalanadi? Bu asosan tahdid ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tahdidlar esa quyidagicha bo'lishi mumkin: moddiy ta'minlamaslik, ya'ni pul bermaslik (m oddiy ta'minlamaslik), uydan haydash, bolalarini olib qo'yish yoki ularni ko'rish imkoniyatidan mahrum qilish bilan qo'rjitish, badaniga shikast yetkazish yoki o'ldirish bilan qo'rjitish va hokazo. Zo'ravonlar tahdidlar bilan bir qatorda quyidagi harakatlar orqali ham o'zlarining hukmronligini namoyish qilishga urinishlari mumkin: telefoninin olib qo'yish, kiyimlarini yirtish yoki shaxsiy buyumlarini sindirish, uyga qamab qo'yish, mushtini ko'rsatish orqali qo'rjitish va hokazo.

Ammo zo'ravonlik bilan bir qatorda tazyiqqa uchrayotgan xotin-qizlar ham yo'q emas.

Tazyiq - sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik, ta'qib etishni anglatadi.

Ta'qib etish - jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi, uning ikki yoki undan ortiq marta qarshilik ko'rsatganligiga yohud ogohlantirganligiga qaramay sodir etiladigan, jabrlanuvchini qidirishda, u bilan og'zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali yoki boshqa usullarni qo'llash yo'il bilan muloqotga kirishishda, uning ish, o'qish va (yoki) yashash joyiga borishda ifodalangan hamda jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotirlik qo'zg'atadigan harakatlarga aytildi.

"Kamsitish" ("diskriminatsiya") - kishini irqi, jinsi, tili, dini yoki boshqa asoslarga ko'ra har qanday farqlash, chetlatish, cheklash yoki maqbul ko'rish hisoblanib, buning oqibatida kishining huquqlari poymol qilinadi yoki ularni ro'yobga chiqarish qiyinlashtiriladi. Teng sharoitlar mavjud bo'lgan holatda noteng muomala qilinsa - bu kamsitish bo'ladi. Yevropa Sudining fikricha, kamsitish – bir xildagi holatda bo'lgan shaxsga yoki bir gurux shaxslarga turlicha muomalada bo'lishdir. Lekin, turlicha muomalada bo'lish hamma vaqt ham kamsitish emas. Turlicha muomalada bo'lishni oqlovchi qonuniy maqsad bo'lmasa yoki turlicha muomalani qo'llash shunday xolis, oqil maqsadga muvofiq bo'lmasa – kamsitish bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan tahlillardan kelib chiqib, "oiladagi zo'ravonlik" tushunchasiga quyidagicha mualliflik tarifi taklif qilinadi:

Mualliflik tarifimizga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik – shaxs (er, xotin yoki farzandlar yohud oilaning boshqa a'zolari)ning xohish - irodasiga qarshi qasddan muayyan harakatni amalga oshirishni ifodalovchi qonunga zid jismoniy, ruhiy yoki jinsiy xarakterdagи majburlashdan iborat harakat.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 2019-yil 2-sentabrdagi Qonunida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlari belgilangan. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- o'ziga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yohud sudga murojaat etish;

- maxsus markazlarda, shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish; – ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqda xabardor qilish;

- sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

Zo'ravonlik salbiy ijtimoiy hodisa bo'lib, juda murakkab mavzu hisoblanadi. Uning qurbanlari ko'pgina hollarda sukul saqlashga majburdirlar va bu zo'ravonlik qurbanlari bo'lgan xotin-qizlar bilan ishslash, muloqotga kirishish alohida yondashuvni talab etadi. Zo'ravonlik xotin-qizlarning ruhiy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy salomatligiga zarar yetkazibgina qolmaydi, balki uni ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan shaxs sifatida jiddiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keladi.

Ijtimoiy zo'ravonliklarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlar albatta bir necha muammolar, jumladan, inqiroz va ertangi kunga bo'lgan ishonchszilik, hayotiy muhim qarorlarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmaslik, inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarning o'z qiymatini yo'qotishi va turli xil ruhiy muammolarning uyg'unlikdagi ko'rinishlaridan kelib chiqadi. Agar biz yangi O'zbekistonda yashashni istasak, birinchi navbatda, fuqarolik va insonlikning qadriga yetishimiz va uni himoya qilish zarurligini to'liq tushunib olishimiz kerak bo'ladi.

### XULOSA

Ijtimoiy falsafa metodlari asosida tazyiq va zo'ravonliklarni ilmiy tahlil qiladigan bo'lsak, ularning kelib chiqishi asosan, gender stereotiplar – jamiyatda erkaklar va ayollarining o'rni va roli

**FALSAFA**

haqidagi an'anaviy tushunchadan kelib chiqqan holda, turli jinsdagi vakillarning xususiyatlari va xulq-atvori to'g'risidagi umumiy fikrning ta'siri natijasida bo'lishi mumkin.

Gender stereotiplar ushbu jamiyatda mavjud bo'lgan gender roller bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni saqlash va ko'paytirishga, xususan, gender stereotiplar gender tengsizlikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu holatni bartaraf etishda jinsga qarab diskriminatsiyaning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni tushunish va hisobga olish, ya'ni gender sezgirlik muhim ahamiyatga egadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Veber M. Nauka kak prizvaniye i professiya // M. Veber. Izbrannye proizvedeniya. - M.: Progress, 1990. – 456 s
2. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. - 316 b
3. Niyoziyova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik nazariyasi (Monografiya). – T. : TDYUI, 2011. – B. 36.
4. Orlova E. Vvedeniye v sotsialnuyu i kulturnuyu antropologiyu. – Moskva: 1994. - 384 s
5. Otamuratov S. Globallashuv va millat. -Toshkent: Yangi asr avlod, 2008. – 204 b
6. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. T.: TDYUI, 2006. –B. 42.